

social and labor standards, enhancing the investment climate, and deepening sectoral integration. By 2030, the industry can become a major export driver and source of economic stability through effective governance and innovation-oriented reforms adapted to national conditions.

#### ***List of used literature:***

1. Mustapaev A. *Improving the Efficiency of Management of the Competencies of Workers in the Sewing and Knitwear Industry // American Journal of Corporate Management.* - 2025. - T. 2. - no. 2. - S. 22–26.

2. Vafoeva D. *Cluster approach in the development of textile and knitwear enterprises in Uzbekistan // International Journal of Business and Management Studies.* – 2024. – Vol. 3(4). – P. 45–51.

3. Bobrov E., Samsonov V. *Digital transformation in the textile and garment industry: efficiency and challenges // Journal of Industrial Economics and Management.* – 2023. – Vol. 11(2). – P. 87–95.

4. Ibragimov Sh. *Factors of increasing labor productivity in the textile industry of Uzbekistan // Central Asian Journal of Economic Studies.* – 2024. – Vol. 6(1). – P. 101–108.

5. Alimov L. *State support and cluster integration in the textile industry of Uzbekistan // Economics and Innovation Review.* – 2023. – Vol. 5(3). – P. 64–70.

6. Karimov R. *Prospects of export diversification of sewing and knitwear enterprises within Uzbekistan 2030 strategy // Eurasian Journal of Business and Strategy.* – 2025. – Vol. 4(2). – P. 55–62.

## **OLIY TA'LIMDA INVESTITSION RISKLARNI BAHOLASHNING MUHIM SHARTLARI**

***Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich***

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,*

*“Iqtisodiyot va menejment” kafedrası PhD katta o'qituvchisi.*

***Annotatsiya.*** Oliy ta'lim tizimida investitsiya risklarini baholash va boshqarish bugungi kunda ta'lim bozori dinamik rivojlanishining muhim talablaridan biri hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalarida investitsiya loyihalarining samaradorligini va risk omillarini to'g'ri aniqlash hamda sifat ko'rsatkichlarini kompleks baholash investitsion jarayonlarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur tezisda oliy ta'lim tizimida investitsion risklarni baholashning asosiy shartlari yoritilib, risklarni baholashga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar tahlil qilingan. Xulosa sifatida investitsion risklarni baholash jarayonida nafaqat moliyaviy va statistik tahlil usullarining, balki sifat ko'rsatkichlarini baholashning ham muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan.

***Kalit so'zlar:*** oliy ta'lim investitsiyalari, investitsion riskni pasaytirish shartlari, investitsion riskni baholash, investitsion riskni boshqarish.

Oliy ta'lim sohasida investitsiya oqimini oshishi va oliy ta'lim muassasalarining xususiy va davlat muassasalari o'rtasida raqobat kuchashiyishi investitsion risklarni to'g'ri baholash va amalga oshirishni talab etmoqda. Investitsiya risklarini samarali baholash va boshqarish jarayonida asosiy muammolar metodologiya, ya'ni riskni o'lchash bilan ifodalanadi. Ya'ni, oliy ta'lim tizimi bozoriga yangi tashkilotlar kirib kelishi va bozordan chiqib ketishi, avvalo, riskni baholash jarayoni bilan boshlanishi zaruriyatini tug'diradi.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish hamda investitsion jozibadorligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "yangi O'zbekiston sharoitida oliy ta'lim tizimini rivojlantirishga investitsiyalarni keng jalb qilish orqali uning raqobatbardoshligini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi"<sup>23</sup>. Oliy ta'lim muassasalarida investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida risklarni baholash zaruratini yanada oshib, oliy ta'lim muassasalarida investitsiya faoliyatini amalga oshirishda risklarni baholash mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Oliy ta'lim muassasalarida investitsiya risklarini baholash oliy ta'lim tizimining tarkibiy, moliyaviy, huquqiy hamda bozor xususiyatlarini hisobga oluvchi kompleks yondashuv asosida amalga oshirilishi muhim hisoblanib, oliy ta'lim muassasalarining ijtimoiy va iqtisodiy vazifalarni o'zida mujassam qilgan, shuningdek, raqobat muhitiga inobatga olgan holda bajarilishi muhimligi va bu jarayonda, an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlar bilan cheklanmaslik, balki ta'lim muassasalarining ijtimoiy maqsadlarini hisobga olgan holda, investitsiya risklarini baholash ko'rsatkichlarini takomillashtirish talab etiladi. Ushbu maqsadlarga asoslanib, oliy ta'lim tizimida investitsiya risklarini baholash quyidagi asosiy yo'nalishlar doirasida amalga oshiriladi:

Investitsiya kiritishda nafaqat loyihalar tahlili, balki cheklanib qolmasdan Respublika ta'lim muassasalari darajasida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisobga olish zarur, bunda riskni baholash investitsion loyihalarning makroiqtisodiy shoklar, inflyatsiya, valyuta kursi o'zgarishi, ta'lim xizmatlaridagi bozor dinamikasi va demografik o'zgarishlar fonida ta'lim muassasalarining investitsiya jalb qilish va amalga oshirishdagi nisbiy barqarorligini aniqlashni nazarda tutadi;

pul oqimlarining barqarorligi, daromad manbalarining diversifikatsiya qilinganligi (kontrakt to'lovlari, grantlar, budget mablag'lari, xususiy sheriklik va boshqa manbalardan foydalanganligi), kapital tuzilmasi investorlar talablariga mosligi hamda moliyaviy majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish imkoniyati;

ta'lim xizmatlariga bo'lgan talab dinamikasi, ta'lim dasturlarining mehnat bozori talablariga mosligi, muassasaning raqobardoshligi, bunda uning boshqa ta'lim muassasalariga nisbatan ustunliklari va ta'lim bozorida obro'si (imidji);

---

<sup>23</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158 son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston-2030" strategiyasi

SDG maqsadlarining amalga oshirilishi, University 3.0 va 4.0 modeliga o'tishning rejalashtirilgan natijalari, ularning sifat mezonlari asosida baholanishi, shaffoflik va ochiqlik darajasi, risklarni boshqarish tizimi hamda boshqaruv kadrlari salohiyati tizimli tarzda monitoring qilinishi;

ilmiy-tadqiqot bazasi rivojlanganligi, bunda xalqaro maqolalar bazasida ilmiy tadqiqot yuritish mavjudligi, ta'lim xizmatlari raqamlashtirish darajasi va bilimlarni tijoratlashtirish imkoniyatlari;

oliy ta'lim sohasidagi mahalliy va xalqaro akkreditatsiya talablari bajarilishi va davlat-xususiy sheriklikni tartibga soluvchi mexanizmlar keng qo'llanilganligi bilan asoslanadi.

Investitsiya loyihalarini baholash jarayonida sifat va miqdoriy tahlil usullarini birlashtirish, ya'ni kompleks baholash investitsiya jarayoniga ta'sir qiluvchi asosiy risk omillarini aniqlashda, statistik tahlil va matematik modellashtirish asosida investitsion risklarni yuzaga kelish ehtimolini va kutilayotgan iqtisodiy yo'qotishlar hajmini baholash imkonini beradi<sup>24</sup>.

Oliy ta'lim tizimida loyiha parametrlarining sezgirlikni aniqlash investitsiya riskini baholash jarayonida muhim hisoblanadi. Bunda, sezgirlik tahlili investitsiya loyihasining asosiy moliyaviy ko'rsatkichlariga, xususan, sof joriy qiymat (NPV), ichki daromadlilik darajasi (IRR) va rentabellik indeksiga (PI) ta'sir qiluvchi omillarning o'zgarishi, likvidlik darajasi va kredit risklarini qaytarish darajasini aniqlash imkonini berib, investitsiya loyihasining zaif komponentlarini aniqlash va risklarni minimallashtirishga qaratilgan boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi<sup>25</sup>.

Bundan tashqari, investitsion risklarni modellashtirish ko'pincha optimistik, realistik va pessimistik stsenariylar orqali baholanadi. Undan tashqari, investitsiya risklarni kamaytirish va ishlab chiqarish tizimiga muvofiq yo'qotishlarni prognoz qilish kapital qo'yilmalarni oshirishni ta'minlaydi<sup>26</sup>.

Bugungi dunyo dinamikasida oliy ta'lim muassasalari oldida raqamlashtirish va mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash asosiy masalalardan biri bo'lib, ta'lim tizimida investitsiyani baholash va risklarni to'g'ri taqsimlashni nazarda tutadi. Shu bilan birga, ko'pgina ko'rsatkichlar faqat moliyaviy natijalarni aks ettirishi, ijtimoiy va sifat talablariga javob beradigan risklarni baholash zaruratini yanada oshiradi. Oliy ta'lim tizimi investitsiyalardan olinadigan foydani sifatli va miqdoriy baholash orqali amalga oshirishni taqozo etadi. Bunda investitsiya qilish jarayonida, tavakkalchilik darajasini aniqlash, tahlil qilish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Investitsiya risklarini baholash oliy ta'lim tizimini loyihalarining ichki va tashqi omillarini har tomonlama tahlil qilishni talab qilib, tashkilotlarning nafaqat

---

<sup>24</sup> Knight F.H. Risk, Uncertainty and Profit. – Boston: Houghton Mifflin Company, 1921.

<sup>25</sup> Damodaran A. Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset. – New York: Wiley Finance, 2012.

<sup>26</sup> Brealey R., Myers S., Allen F. Principles of Corporate Finance. – New York: McGraw-Hill Education, 2020.

молитавий барқарорлиги, балки инвеститсион жозибадорлиги, та'лим сифати дарajasi ва та'лим хизматларига бозор талаби о'рtasидaги бог'лиqlиги билaм ҳам тaснifланaди.

Umuman olganda, oliy ta'lim tizimida investitsiya risklarini baholash va ta'lim standartlarini oshirish uchun ssenariy tahlili, modellashtirish va ekspert baholash qo'llanilib sifati va miqsod ko'rsatkichlarini kompleks baholashi imkoniyatini beradi. Shu tariqa, investitsiya risklarini kamaytirish va ta'lim sifatinii yaxshilash oliy ta'lim tizimida investitsiya loyihalarining samaradorligini oshirish va barqaror investitsiya muhitini ta'minlashga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158 son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston-2030" strategiyasi*

2. *Knight F.H. Risk, Uncertainty and Profit. – Boston: Houghton Mifflin Company, 1921.*

3. *Damodaran A. Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset. – New York: Wiley Finance, 2012.*

4. *Brealey R., Myers S., Allen F. Principles of Corporate Finance. – New York: McGraw-Hill Education, 2020.*

## **ОПТИМАЛЬНЫЙ УРОВЕНЬ ГОСУДАРСТВЕННОГО ДОЛГА В РАЗВИВАЮЩИХСЯ ЭКОНОМИКАХ**

**Одинаев Фаёзхон Зиядуллаевич,**

*Начальник общего отдела инжиниринговой компании при хокимияте города, Магистр (МВА)*

Вопрос определения оптимального уровня внешнего долга занимает ключевое место в анализе траекторий развития стран с формирующимися рынками. В теоретической литературе оптимальный долг трактуется как такой объём заимствований, при котором предельный вклад привлечённых ресурсов в экономический рост исчерпывается, а дальнейшее накопление обязательств начинает сдерживать динамику ВВП через рост процентных выплат и усиление макрофинансовых рисков.<sup>27</sup> Данная логика формализуется в «золотом критерии», согласно которому устойчивость долговой траектории сохраняется при условии, что темпы роста экономики превышают стоимость обслуживания долга. Вместе с тем последующие исследования показали, что связь между долгом и ростом носит нелинейный характер и существенно зависит от институционального качества, структуры экспорта и направлений использования заёмных средств, что делает универсальные нормативы

<sup>27</sup> Ризакуловна С. Б., Жамолов М. М. Проблемы в механизмах использования государственного внешнего долга и их институциональные решения: фокус на Узбекистане // Экономика и социум. 2025. № 6(133)-1. С. 1337-1355.